

**JADID DRAMATURGIYASIDA XOTIN-QIZLAR MASALASI: ICHKI VA
IJTIMOIY KONFLIKT KONSEPSIYASI
(Hoji Muin “Mazluma xotin” va Abdurauf Fitrat “Arslon” dramalari asosida)**

Shovxunova Dilmuza Shavkat qizi,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU

Filologiya fakulteti adabiyotshunoslik nazariyasi mutaxassisligi

2-kurs magistranti shovxunovadilmuza@gmail.com

Ilmiy rahbar: Olim Usmonov,

f.f.n., dots.

Annotatsiya. Ushbu maqolada dramaturgiya haqida mulohazalar va aynan jadid dramaturgiyasida xotin-qizlar masalasining badiiy talqini, ayniqsa, ichki va ijtimoiy konfliktning shakllanish mexanizmlari Hoji Muinning “Mazluma xotin” va Abdurauf Fitratning “Arslon” dramalari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayol obrazi, uning ijtimoiy maqomi, ruhiyati, ma’rifatparvarlik g’oyalarning dramatik ifodasi o’rganiladi. Shuningdek, adabiyotda konflikt masalasi, uning ayollar obrazini yaratishdagi o’rni haqida to’xtalib o’tiladi.

Kalit so’zlar: jadid dramaturgiyasi, obraz, xotin-qizlar masalasi, ichki konflikt, ijtimoiy konflikt, “Mazluma xotin”, “Arslon”, ruhiyat, ma’rifatparvarlik.

Аннотация. В данной статье рассматривается драматургия и, в частности, анализируется художественная интерпретация женской проблемы в драматургии эпохи Джадидов, особенно механизмы формирования внутреннего и социального конфликта, на примере драм Хаджи Муина «Угнетённая женщина» и Абдурауфа Фитрата «Лев». Исследование изучает образ женщины, её социальный статус, её психику и драматическое выражение идей Просвещения. Также рассматривается вопрос конфликта в литературе и его роль в формировании образа женщины.

Ключевые слова: драматургия эпохи Джадидов, образ, женская проблема, внутренний конфликт, социальный конфликт, «Угнетённая женщина», «Лев», психика, Просвещение.

Abstract. This article discusses dramaturgy and specifically analyzes the artistic interpretation of the women's issue in Jadid dramaturgy, especially the mechanisms of formation of internal and social conflict, using the example of Haji Muin's dramas "The Oppressed Woman" and Abdurauf Fitrat's "The Lion". The study studies the image of a woman, her social status, her psyche, and the dramatic expression of the ideas of enlightenment. It also discusses the issue of conflict in literature and its role in creating the image of women.

Keywords: Jadid dramaturgy, image, women's issue, internal conflict, social conflict, "The Oppressed Woman", "The Lion", psyche, enlightenment.

Kirish. Adabiyot – bu mo‘jizalar dunyosi. Bu mo‘jiza atalmish adabiyot olamida esa adabiy turlar talaygina, drama shulardan dramatik turning shox janrlaridan biri hisoblanadi. Dramaturgiya qisqa qilib aytganda, voqeani bayon qilishdan qochib, tortishuvlar, ya’ni konflikt asosiga qurishni talab etadi. Ilmiy adabiyotlarda aynan konflikt tushunchasiga ko‘p marotaba murojbat qilingan. Xususan, D.Quronov shunday deydi: “Konflikt (lot., to‘qnashuv) deganda badiiy asar personajlarining o‘zaro kurashlari, qahramonning o‘z muhiti bilan ziddiyatlari, shuningdek, uning ruhiyatida kechuvchi qarama-qarshiliklar tushuniladi” [3.178]. Darhaqiqat, badiiy asar voqelikni aks ettirgani va uning markazida inson turganligi uchun ham konfliktning asosiy unsurlardan biri ekanligi

shubhasiz. Bundan tashqari, dramatik asarlarning xalq orasida ta'siri kuchli, millatni tarbiyalash yo'lidagi ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan. Bunday asarlar tomoshabin bilan uzviy aloqada yashaydi. Tomoshabinlar asar qahramonlarini o'zlarining zamondoshlari, safdoshlaridek his qiladilar.

Adabiyotlar tahlili. Aristotel an'anasidan boshlab dramatik asarda yaxlitlik, sabab-oqibat bog'lanishi va keskinlik tamoyillari muhim o'rin egallab keladi. Dramaturgiya taraqqiyoti tarixiy-madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, har bir davr o'zining ijtimoiy muammolari va estetik qarashlarini sahna orqali ifodalagan. Shu nuqtayi nazardan, turkiy adabiyotda, xususan, XX asr boshlarida shakllangan yangilanish harakatlari dramaturgiyaning yangi bosqichini boshlab berdi. Atoqli olim Shuhrat Rizayev "Jadid dramasi" asarida aynan jadidchilikning ijtimoiy-tarixiy tadrijini quyidagicha belgilab o'tgan:

1) XIX asr oxirlaridan to 1916-yil o'rtalarigacha;

2) 1916-yil ikkinchi yarmidan to 1929-yilgacha.[4.108] Ochiqroq aytadigan bo'lsak, birinchi davrni ma'rifatchilik davri, ikkinchi davrni esa siyosiy kurash davri deb aytishimiz mumkin. Abdurauf Fitrat va Hoji Muinning biz tahlilga tortadigan asarlari birinchi davrga ("Mazluma xotin" 1916-1917 "Arslon" 1914-1915) to'g'ri keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Aynan shu o'rinda Jadidchilik harakati adabiy-estetik tafakkur rivojida burilish yasagan muhim bosqich sifatida namoyon bo'ladi. Jadid dramaturgiyasi nafaqat badiiy-estetik maqsadlarni, balki ijtimoiy-ma'rifiy vazifalarni ham o'z zimmasiga oldi. Yana konflikt masalasiga qaytadigan bo'lsak, u asosan, ikki qatlamda namoyon bo'ladi: ijtimoiy konflikt – shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyat; ichki konflikt – shaxsning o'z ichki dunyosidagi ruhiy kurash. Bu ikki qatlam ko'pincha bir-birini to'ldirib, dramatik kuchni oshiradi. Ayniqsa, ayol obrazlari orqali bu konflikt yanada keskin ifodalanadi. Ayollar taqdiri aks qaysi asarni olmaylik, deyarli hammasida ayolning o'limi aks etadi. Xususan, o'zim o'qib guvohi bo'lgan "O'tkan kunlar" da Kumush, "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari"da Maryamxon, "Dahshat" da Unsin, "Juvonmarg"da To'tioy, Tursunoy va albatta, maqolamizning asosiy qahramonlaridan biri "Mazluma xotin" asaridagi Tansuqoyning hayoti zaharxanda o'lim bilan yakunlanadi. Bu obrazlar asarni o'qigan kitobxonni o'yga toldiradi, achinish tuyg'usini uyg'otadi. Ilmiy adabiyotlarda "obraz" ham yetarlicha o'rganilgan: "Adabiyotshunoslikda "badiiy obraz" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda "badiiy obraz" deganda borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ijodiy qayta ishlangan har qanday aksi (jonivorlar, narsa-buyumlar, hodisalar, tabiat obrazlari) nazarda tutilsa, tor ma'noda badiiy asardagi inson obrazi tushuniladi. Borliqni badiiy idrok etishni maqsad qilgan badiiy adabiyotning markazida inson obrazi turadi. Negaki, borliqning o'zida inson shu xil mavqe egallaydi. Shunday ekan, badiiy adabiyotning borliqni idrok etishida inson obrazining asosiy vosita bo'lishi tabiiy va qonuniydir. [3.97]

Tahlillar va natijalar. Hoji Muinning to‘rt pardalik bu asari 40 yoshdagi Uzoqboyning yetti marotaba Haj safariga borib kelgan qo‘shnisi ham yaqin odami eshon bilan ikkinchi xotin olmoqlikni muhokama qilayotganligi bilan boshlanadi.[2.284] Buni qarangki, hajga borib kelib, pirga qo‘l bergan bu eshon bobo mayda-chuyda ijtimoiy gaplarga, g‘iybatga o‘ch:

– *Kalon gunohkor-diya, man ham shunday deb eshitaman. O‘zi sharobxo‘r-diya...* [2.285] Shariatdan xabarsiz, faqat yuzaki uzuq-yuluq biladigan, adolat, murosa-yu madorani tushunmaydigan odam Uzoqboyga shariatda to‘rtta xotin olmoq joiz ekanligini takror-takror ta’kidlaydi. Shu orada Uzoqboyning o‘g‘li Bahoiddinqulning yangi maktabdagi muallimi o‘quvchisining 2-3 kundan beri darsga bormayotganligi uchun xabar olgani kelib, bo‘lib o‘tgan suhbatdan xabardor bo‘lgach, ikkinchi xotin olish uchun sabab nimada ekanini so‘raydi. Uzoqboy esa ayolining Yoshi 30 ga borib qolganligini bahona qilib, mujmal javob beradi. Hatto adolat, uzr, murosa, madoraning aslida nima ekanligini ham bilmaydigan Uzoqboyning holati odamning kulgisini qistatadi:

– *Taqsir, adolati nima? Adolat podshohlarda bo‘lmaydurmi?* [2.293]

Muallimning Uzoqboyga aytgan so‘zlari nihoyatda muhim va ayni muddao edi:

- *Payg‘ambarimiz alayhissalom sahobalarga aytibdurlarki: “Sizlardan eng yaxshilaringiz o‘z xotunlariga yaxshi muomala qiladurlari”* [2.295] “Ko‘ngli yosh xotin istab” qolgan boyning xotini Tansuqoy bor mehr-muhabbatini, o‘zini eriga fido qilgan mardona ayol timsoli:

- *Odamlar sizni uch pulga olmasalar ham mayli. Man sizni ming tilloga ham sotmayman. Man sizni yaxshi ko‘raman, ko‘zimga to‘ra va amirdan ham yaxshiroq ko‘rinasiz-diya, otasi!* [2.299]

Tansuqoyning kundoshi 18 yoshli Suyaroy kelgandan keyin hayoti zindonga aylanadi. Ayyor kundoshi unga tuhmat qilib, kaltaklatar, uy yumushlarini esa qilmasdi. Tansuqoy onasi aytganidek, xafalikdan kasal ham orttirib yotib qoldi. Oxiri olamdan o‘tdi. Uzoqboy xatosini tushunib, ikki ayol baxtsiz, biri bu dunyodan o‘tgan, bir bola yetim qolganda esa kech edi. Ayol diniy mutaassiblik qurboni bo‘ldi. Asar konflikti ham aynan shunda. Diniy mutaassiblik va ayol baxti o‘rtasidagi ziddiyatning yechimi esa bot-bot muqarrar o‘lim.

Abdurauf Fitratning “Arslon” dramasi aslida yer-suv islohotiga bag‘ishlangan bo‘lsa-da ayollar masalasi markaziy muammolardan biri ekanligi yaqqol ko‘rinib turadi. Xususan, Arslonning onasi Tursunbibi, Botirning onasi Nor xola, Arslonning sevgilisi To‘lg‘un va uning onasi Oyto‘ksa kampir, Mansurboyning satang xotinlari Zaynab oyim va Sharofatxonlar asar yadrosini tashkil etadi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Asarda sofdil, o‘z kuchi va mehnatiga, samimiy muhabbatiga butun vujudi bilan tayangan dehqon yigit endi baxtli hayot qurishiga qattiq ishonadi, yaxshi yashash ishtiyoqi bilan yonadi. Arslon bilan To‘lg‘un o‘rtasiga Mansurboy rahna soladi. Nayrang bilan To‘lg‘unni to‘rtinchi xotini qilib olishga intiladi. Ammo To‘lg‘un faqat Arslonni deydi, agar Mansurboyga

kuchlab berishsa, qochib ketajagi, tutib olishsa, o'zini o'ldirajagini dangal aytadi. [1.94] Aynan To'lg'un obrazida erk uchun kurashga intilish bor. Bundan tashqari Arslonning onasi Tursunbibi bilan Botirning onasi Nor xola, To'lg'unning onasi Oyto'ksa kampir bir-birlariga samimiy dugona va sirdosh, ezilgan tabaqa ayollari — niyatlari pok, halol yashaydilar, lekin turmushning barcha kulfatlari shular boshiga tushadi. Lekin isyon qilishga botina olishmaydi. Zaynab oyim, Sharofatxon Mansurboyning boyvuchcha, satang xotinlari esa yengiltak ayollardir. Arslon kuchli bo'ldi, yengilmadi va oxiri g'alaba qozondi. Asarni "Mazluma xotin" bilan qiyoslaydigan bo'lsak, "Arslon" da nutq va bahs kuchli. Buni Arslonning Mnsurboy bilan qilgan suhbatlaridan ham bilib olishimiz mumkin. Unda umid unsuri, kurash bor, tashqi ijtimoiy konflikt markaziy o'rinda turadi. "Mazluma xotin" da esa ichki psixologik konflikt bor. Tansuqoyning o'z-o'zi bilan gaplashishlari bunga misol bo'la oladi. Asar fojiaiy yakun topdi, unda sukut va ichki dramatism kuchli. Tansuqoy zulm qurboni bo'ldi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, jadid dramaturgiyasida xotin-qizlar masalasi nafaqat ijtimoiy muammo, balki chuqur badiiy-falsafiy konsepsiya sifatida namoyon bo'ladi. Hoji Muinning "Mazluma xotin" asarida konflikt individual fojia shaklida ifodalansa, Fitratning "Arslon" dramasida u keng ijtimoiy-ma'rifiy tizimga aylanadi. Har ikkala asar ham jadid adabiyotining asosiy g'oyasi — jamiyatni isloh qilish va inson erkinligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar III jild. -Toshkent:"Ma'naviyat". 2003
2. Hoji Muin Shukrulla. Mazluma xotin. – www.ziyo.uz.com. kutubxonasi.
3. Quronov D.Adabiyot nazariyasi asoslari.-Toshkent:Akademnashr,2018.
4. Rizayev Sh. Jadid dramasi. -Toshkent:"Sharq" nashriyot-manbaa konserning bosh tahririyati. 1997